| | |
|---|---|
| | 5. Axmedjanov K.B., Sattorov A.X. Auditga kirish. Darslik. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.<br><br>**Axborot manbaalari**<br>1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.<br>2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.<br>3. www.ziyonet.uz – axborot ta’lim portali |
| **7.** | **Namangan muhandislik – qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.** |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas’ullar:**<br>I.Sirojiddinov – NamMQI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, i.f.n. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>U.Xolmirzayev– NamMQI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. PhD.<br>O.Sobirov – NamMTI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. PhD. |



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

NamMQI
O‘quv-uslubiy boshqarma
№ 36
«30» 04 2024 y

**“Tasdiqlayman”**
Namangan muhandislik-
qurilish instituti rektori
_______ SH.T.Ergashev
2024 yil “30” 04

# AUDIT XALQARO STANDARTLARI

## FANINING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohalari:** | 400 000 - | Biznes, boshqaruv va xuquq |
| **Ta’lim sohalari:** | 410 000 - | Biznes va boshqaruv |
| **Mutaxasislik:** | 70410101 - | Buxgalteriya hisobi |

**Namangan-2024**

| Fan/modul kodi<br>AXS2205 | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>2 | ECTS - Kreditlar<br>5 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Tanlov | Ta'lim tili<br>O'zbek | | Haftadagi dars soatlari<br>5 | |
| 1. Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| Auditning xalqaro standartlari | | 74<br>(30 m/ 44 a) | 76 | 150 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** - magistraturada tegishli tavsiyalar berish orqali auditning xalqaro standartlari, auditorlik tekshiruvi jarayoniga tegishli xalqaro qonun va qoidalar haqida bilib olish, professional buxgalterlar ahloq kodeksi, professional javobgarlik haqida, sifat nazorati, rejalashtirish, ahamiyatlilik, auditorlik dalillari va dalillarni olish, boshqalarning ishidan foydalanish, jamoaviy audit, eksport-import va valyuta muomalalari auditi, buxgalteriya balansi auditi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot auditi, pul oqimi to'g'risida hisobot auditi va xususiy kapital to'g'risidagi hisobot auditi haqida ko'nikmalar berish hisoblanadi. SHuningdek, auditdagi keyingi hodisalar va muntazam faoliyat, tugatish va so'ngi ko'rib chiqish, auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha auditorlik hisobotini tayyorlash tartibi, boshqaruv vakolatiga ega bo'lganlar uchun hisobotlar tushuntiriladi, auditorlik xulosalarining tarkibi va ular mazmuni auditga tegishli va boshqa ishonch xizmatlari, ijtimoiy, ekologik va kompleks hisobotlar auditi, davlat sektorida samaradoklik to'g'risidagi ma'lumot (oldindan belgilangan vazifalar) auditi, boshqa vazifalar bo'yicha hisobot, professional va ahloqiy rivojlanish va boshqa dolzarb muammolar haqida fikr shakllantirish hisoblanadi.

**Fanning vazifasi** - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, ichki audit faoliyatiga uslubiy yondashuv, ichki audit asosiy bosqichlari mazmuni va ulardagi taomillarning ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy nazorat talab va me'yorlarini, hujjatlar to'plash, hujjatlashtirish jarayonlarini tahlil qilishni va auditorlik dalillarini to'plash hamda ularni qayta ishlash jarayonini, boshqaruv tizimida ichki auditni tashkil etishni shakl va usullarini o'rgatishdan iboratdir.

**Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- audit va tegishli xizmatlar uchun xalqaro normativ-huquqiy baza, auditorlik tekshiruvi jarayonida pulni o'zlashtirishni aniqlash hamda tegishli qonun va qoidalar haqida bilib olish;
- professional buxgalterlar ahloq kodeksi, firibgarlik va xatolar, professional javobgarlik haqida, sifat nazorati (keng miqyosda), reklama, tenderlarni o'tkazish, professional ish va to'lovlarni olish, professional uchrashuvlar haqida bilimlarni oshirish;



- rejalashtirish, ahamiyatlilik va moddiy xatolik riskni baholash, dalillar va sinov mulohazalari, audit jarayonlari va dalillarni olish, boshqalarning ishidan foydalanish, jamoaviy audit, eksport-import va valyuta muomalalari auditi, buxgalteriya balansi auditi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot auditi, pul oqimi to'g'risida hisobot auditi va xususiy kapital to'g'risidagi hisobot auditi haqida bilib olish;
- keyingi hodisalar va muntazam faoliyat, tugatish va so'ngi ko'rib chiqish, auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha auditorlik hisobotini tayyorlash tartibi, boshqaruv vakolatiga ega bo'lganlar uchun hisobotlar tushuntiriladi, auditorlik xulosalarining tarkibi va ular mazmuni haqida fikr yuritish;
- auditga tegishli va boshqa ishonch xizmatlari, aniq vazifalar, ijtimoiy, ekologik va kompleks hisobotlar auditi, davlat sektorida samaradoklik to'g'risidagi ma'lumot (oldindan belgilangan vazifalar) auditi, boshqa vazifalar bo'yicha hisobot, professional va ahloqiy rivojlanish va boshqa dolzarb muammolar haqida bilib olish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Xalqaro audit standartlarining ahamiyati va vazifalari**

Auditning xalqaro standartlari haqida tushuncha, ularning zarurligi va ahamiyati. Auditning xalqaro standartlari uchun xalqaro normativ-huquqiy baza. Standartlarning qo'llanilishi. Qonun va qoidalar.

**2-mavzu. Xalqaro audit standartlari asosida auditni tashkil qilish**

Moliyaviy hisobot auditining maqsadi. Auditorning mijoz oldidagi xat-majburiyati. Tekshirish o'tkazishda shartnoma. Moliyaviy hisobotning auditida qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqish. Professional buxgalterlar ahloq kodeksi. Firibgarlik va xatolar. Professional javobgarlik.

**3-mavzu. Auditorlik dalillarini yig'ish**

Auditorlik dalillar va ularni olish usullari. Auditorlik tanlash. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish. Auditda muhimlik va tavakkalchilik darajalarini aniqlash. Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash. Bog'liq tomonlar. Professional uchrashuvlar.

**4-mavzu. Audit o'tkazish jarayonida malumotlarni yig'ish va umumlashtirish bo'yicha xalqaro audit standartlari**

Rejalashtirish, ahamiyatlilik va moddiy xatolik riskni baholash. Dalillar va sinov mulohazalari. Audit jarayonlari va dalillarni olish. Boshqalarning ishidan foydalanish. Jamoaviy audit

**5-mavzu. Auditning mahsus jabhalari va unga xizmat ko'rsatish**

Maxsus masalalar – maxsus maqsadli asoslarga muvofiq tayyorlangan

moliyaviy hisobotlar auditi. Maxsus masalalar – ayrim moliyaviy hisobotlar hamda moliyaviy hisobotdagi maxsus elementlar, schyotlar yoki moddalar auditi Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisobot (xulosa) taqdim etish kelishuvlari.

**6-mavzu. Xalqaro audit amaliyoti yuzasidan yo'riqnoma**

Ma'lumotlarning kompyuter ishlovi sharoitida audit. Moliyaviy instrumentlarni auditdan o'tkazishda maxsus jihatlar. O'zbekistonda auditorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbollari.

**7-mavzu. Boshqa mutaxassislarning ishlaridan foydalanish**

Standartning maqsadi va vazifalari, amal qilish sohasi. Boshqa auditorlar xizmatidan foydalanishning konseptul asoslari. Asosiy auditor sifatida chiqish. Asosiy auditor taomillari. Boshqa auditor taomillari. Asosiy auditor javobiga qo'yiladigan talablar. Asosiy va boshqa auditorlarning javobgarligi.

**8-mavzu. Ekspert ishidan foydalanish**

Standartning maqsadi va vazifalari, amal qilish sohasi. Ekspertni tayinlash. Ekspert ishi natijalarini rasmiylashtirish. Ekspert ishi natijalaridan foydalanish.

**9-mavzu. Audit o'tkazilgan moliyaviy hisobotlar tarkibidagi boshqa ma'lumotlar**

Standartning maqsadi va vazifalari, amal qilish sohasi. Boshqa ma'lumot manbalari. Boshqa ma'lumotlarni o'qish va qo'shimcha tadbirlar. Jiddiy ziddiyatlar. Jiddiy chalkashliklar. Jiddiy ziddiyatlar. Auditorlik xulosasi tuzilgan sanadan keyin boshqa ma'lumotlarni olish mumkinligi.

**10-mavzu. Audit tekshiruvining yakunlovchi bosqichi**

Standartning maqsadi va vazifalari, amal qilish sohasi. Auditorlik hisobotining kirish va tahliliy qismi.

**11-mavzu. Auditorlik hulosa va takliflarining xalqaro standartlari**

Auditorlik xulosasini tuzish. Auditorlik hisobotini tuzish

**12-mavzu. Maxsuslashtirilgan sohalarning (maxsus savollar bo'yicha tayinlangan) auditi**

Standartning maqsadi va vazifalari, amal qilish sohasi. Maxsus savollar bo'yicha tayinlangan auditning mohiyati.

Maxsus savollar bo'yicha tayinlangan auditning natijalari bo'yicha auditor



hisoboti.

**13-mavzu. Auditorlik tashkilotlarning kasbga doir professional xizmatlari**

Standartning maqsadi va vazifalari, amal qilish sohasi. Professional xizmatlar ko'rsatish tartibi. Professional xizmatlar ro'yxati. Shartnomani bajarishning umumiy prinsiplari. Professional xizmatlar ko'rsatish. Profesional ko'rsatilgan xizmatlar natijalari to'g'risida hisobot.

**14-mavzu. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash**

Standartning maqsadi va vazifalari, amal qilish sohasi. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholashning konseptual asoslari. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholashga qo'yiladigan asosiy talablar. Buxgalteriya hisobi tizimini baholash tartibi. Ichki nazorat tizimini baholash tartibi

**15-mavzu. O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish**

Xalqaro buxgalterlar federasiyasining Audit va ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari bo'yicha kengashi. Auditning xalqaro standartlari, sifat nazoratining xalqaro standartlari, tahliliy tekshirishlarning xalqaro standartlari, ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari, turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari.

O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini ko'rib chiqish. O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini joriy etish.

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xalqaro audit standartlarining ahamiyati va vazifalari
2. Xalqaro audit standartlari asosida auditni tashkil qilish
3. Auditorlik dalillarini yig'ish
4. Auditorlik dalillarini yig'ish
5. Audit o'tkazish jarayonida malumotlarni yig'ish va umumlashtirish bo'yicha xalqaro audit standartlari
6. Audit o'tkazish jarayonida malumotlarni yig'ish va umumlashtirish bo'yicha xalqaro audit standartlari
7. Auditning mahsus jabhalari va unga xizmat ko'rsatish
8. Xalqaro audit amaliyoti yuzasidan yo'riqnoma
9. Xalqaro audit amaliyoti yuzasidan yo'riqnoma
10. Boshqa mutaxassislarning ishlaridan foydalanish
11. Ekspert ishidan foydalanish

12. Audit o'tkazilgan moliyaviy hisobotlar tarkibidagi boshqa ma'lumotlar
13. Audit tekshiruvining yakunlovchi bosqichi
14. Audit tekshiruvining yakunlovchi bosqichi
15. Auditorlik hulosa va takliflarining xalqaro standartlari
16. Maxsuslashtirilgan sohalarning (maxsus savollar bo'yicha tayinlangan) auditi
17. Auditorlik tashkilotlarning kasbga doir professional xizmatlari
18. Auditorlik tashkilotlarning kasbga doir professional xizmatlari
19. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash
20. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash
21. O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish.
22. O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar**

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar mavzulari:

1. Xalqaro auditning normativ-huquqiy bazasi.
2. Professional buxgalterlar axloq kodeksi.
3. Auditda sifat nazorati muhimliligi.
4. Ijtimoiy, ekologik va kompleks hisobotlar auditi.
5. Hozirda auditda mavjud dolzarb muammolar.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. **V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

-Auditning xalqaro standartlari yordamida echilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

-auditorlik faoliyatini tashkil qilish va boshqarish jarayonlarini rejalashtirish, auditorlar guruhi jamoasini boshqarish;

-auditorlik xizmatlari bozorida risklarni boshqarish ***tasavvurga ega bo'lishi***;

-auditorlik xizmatlari bozori rivojlanishning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

-buxgalteriya hisobi, moliya va soliq sohasida konsalting xizmatlarini ko'rsatish ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

-auditorlik faoliyati sohasida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;



-auditorlik faoliyatini tashkil qilish va boshqarish jarayonlarini rejalashtirish, bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, auditorlar guruhi jamoasini boshqarish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

4. **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni echish;
- so'rov o'tkazish.

5. **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'gri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki test sinovlarini topshirish.

6. **Asosiy adabiyotlar:**


1. ACCA Paper P7. Advanced Audit and Assurance. 2019.
2. Tulaxodjayeva M.M., Ilxomov Sh.I., Ahmadjonov K.B. Audit. Darslik. - Toshkent: TDIU, 2018.
3. Hamdamov B.K. Auditning xalqaro standartlari. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2021.
4. Файзиев Ш.Н., Юлдашева С.Х. Международные стандарты аудита. Учебник. – Т.: ТФИ, 2020.
5. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. 13th Edition. Alvin A Arens and others. Prentice Hall. 2009.


**Qo'shimcha adabiyotlar:**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida. 2023-yil 28-fevral, PF-27-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Auditorlik faoliyati to'g'risida (yangi tahrirda). O'RQ-677-son, 25.02.2021 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risida Nizom" 171-son qaroriga 1-ilova.